

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



“Ekologiya va atrof muhit muhofazasi” yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv dasturi

(oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan nomutaxassis kadrlar uchun)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

Tuzuvchilar:

"Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish" moduli:
TATU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi direktori, p.f.d., prof.
F.M. Zakirova, TATU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi
dotsenti, t.f.n. V.A. Karimova.

"Umumkasbiy tayyorgarlik" bloki modullari:
faoliyati xavfsizligi" kafedrasi professor, t.f.n. M.N. Musayev,
TTESI, "Kimyo" kafedrasi professori, t.f.d. A.S. Rafiqov, "Kimyo"
kafedrasi dotsenti, PhD, S.X. Karimov, TKTI, "Sanoat ekologiyasi"
kafedrasi professori, e.f.d. X.Po'latov.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha: TTESI, "Mehnat muhofazasi va
ekologiya" kafedrasi professori, t.f.d. O.M.Yo'ldosheva, TDTU,
"Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasi professor, t.f.n. M.N. Musayev,
TKTI "Sanoat ekologiyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi N.Bahodirova,
TKTI "Sanoat ekologiyasi" kafedrasi dotsenti, PhD F. Igitov.
t.f.d., prof. O. Yuldoshev - Hayot faoliyati xavfsizligi akademiyasining
akademigi.

Taqritchilar:

t.f.d. B. Ibragimov - O'zbekiston Respublikasi Yong'in xavfsizligi
akademiyasi akademigi.

*O'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining
ilmiy kengashida tasdiqlash tavsiya qilingan. (2021 yil _____ -
dagi _____ - sonli bayonoma)*

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan
"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil
7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar
strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston
Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini
tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni
2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli
Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil
16-fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 25-son Qarori, O'zbekiston
Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 14-sentabrda
"Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida
kasbiy (pedagogik) qayta tayyorlash kurslari faoliyatini yo'lga qo'yish
to'g'risida"gi 479-sonli buyrug'ida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan
kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog
kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish,
sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish,
shuningdek, amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad
qiladi.

Dastur oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan nomutaxassis pedagoglarni
kasbiy qayta tayyorlash kursi uchun mo'ljallangan o'quv reja asosida
shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini
tashkil etish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologiya,
ijtimoiy ekologiya, atrof muhit kimyosi, hayot faoliyat xavfsizligi, organik ba suv
kimyosi, asosiy texnologik jarayon va qurilmalar, muhandislik ekologiyasi,
ekologik menejment asoslari ba sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyalarini
o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni
nazarda tutadi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" yo'nalishida
pedagog kadrlariga ekologiya nazarini asoslari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi
o'zaro aloqadorlik muvozanatining buzilish oqibatlari, atrof-muhit holatini
boshqarish tizimini takomillashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini
oshirish, barqaror ijtimoiy ekologik dunyoqarashni shakllantirish va ijtimoiy
ekologik bilimlarni hayotga tatbiq etish yo'llarini yoritib berish, atrof-muhitni
ifloslanishi oqibatida biosferada sodir bo'layotgan kimyoviy o'zgarishlar va
migratsiyalar bilan tanishtirish, zaharli birikmalarni atrof-muhitga ziyon keltirishi,
tabiiy kimyoviy o'zgarishlar, organik kimyo fanining nazariy asoslari, gidravlika
asoslari, gidromexanika, issiqlik va modda almashinish, mexanika va sovitish
jarayonlarining nazariyasi, ushbu jarayonlarni amalga oshiruvchi mashina va
qurilmalar tuzilishi, ishlash prinsipi, hisoblash-loyihalash va modellash, tirish,
korxonalaridan chiqayotgan tashlanmalarni zararsizlan-tirish, tozalash va qayta
ishlashni zamonaviy usullari haqida fundamental bilimlarni berish hamda bu

bilimlarni talabalarga o'qitish bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish, yangilash va rivojlantirishdan borat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ekologiya va atrof muhit muhofazasi yo'nalishi fanlarini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish;
- ekologiya va atrof muhit muhofazasi yo'nalishida xorij texnologiyalaridan keng foydalanish;
- ekologik muammolarni xal qilish, suvni qayta ishlash, suvni sifatini nazorat qilish, unga baho berish, tozalash qurilmalarining samaradorligini aniqlash;
- moddalarning sifat va miqdor tarkibini aniqlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- muammolarni kelib chiqish sabablarini, tabiatni muhofaza qilishni, himoya qilish vositalari, samarali usullarni qo'llash;
- kimyoviy atama va tushunchalarni to'g'ri ishlata bilish, kimyoviy tajribalarni bajarishda kerakli uskuna, reaktiv va jihozlardan foydalanishni o'rgatish;
- sanoat texnologiyalarining murakkab muammolarini yechish;
- korxonada ifloslanishni oldini olish va uni boshqarish maqsadga muvofiqligi bo'yicha to'g'ri xulosa chiqarishni shakllantirishdan iborat.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlarini;
- ta'lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslarini;
- ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- insonlarning tabiatga ko'rsatadigan antropogen ta'sirlari;
- biosferada moddalarning aylanma harakati;
- tabiiy resurslarning sinflanishi;
- atrof-muhit monitoringi;
- atmosfera havosi va suv havzalarini ifloslantiruvchi manbalar;
- jahon sivilizatsiyasi bilan ijtimoiy-ekologik rivojlanish o'rtasidagi nomutanosiblikni;

- Global ekologik inqirozning sabablari va oqibatlarini;
- Yer qatlamining tuzulishi;
- Kimyoviy elementlarning tarqalganligi;
- Yerdagi evolyusion jarayonlar;
- Atmosferaning barqarorlik sharoitlari;
- Organik moddalarning tuzilishi, tarkibi va xossalari;
- Reaksiyani amalga oshirishning shart-sharoitlari va bajarish usullarini;

- Namuna olish va uni analizga tayyorlashni;
- Kimyoviy texnologiyalar haqida;
- Xomashyo va materiallarning fizik-mexanik va issiqlik-diffuzion xossalari haqida;
- Suvlarning turlari, kimyoviy tarkiblari, suvda yashaydigan mikroorganizmlar haqida;
- Chiqindisiz texnologik jarayonlarni tashkil qilishning asosiy prinsiplarini;
- Yer rekultivatsiya qilish usullarini;
- Havo va suv havzalarini ifloslantiruvchi inshootlari va jihozlarni tuzilishi va ishlashini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish;
- pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish;
- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- atrof-muhit sohasida davlat boshqaruvi va xalqaro xamkorlik;
- havoni chang va zaharli gazlardan tozalash;
- oqava suvlarni sinflash;
- chiqindilarning meyorlarini hisoblash;
- ijtimoiy-ekologik tadqiqotlar olib borish;
- ozon qatlami ifloslantiruvchilarning ta'sir etish darajasini aniqlash;
- atmosferada organik moddalarni kimyoviy o'zgarishlarini aniqlash;
- atmosferada fotokimyoviy smog hosil bo'lish jarayoni nazorat qilish;
- aralashmalar tarkibidagi moddalarni sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash;
- rN metrlar, spektrofotometrlar, fotoelektroklorimetrlar, alangali fotometrlar, atom-absorbsion spektrometrlar, polyarograflar, ampermetrlarni ishlatisht;
- tabiiy va oqava suvlarni ajratib, ularni sifatiga baho berish;
- tabiiy va oqava suvlarni sanitar-kimyoviy tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va sanoat tarmoqlarida vujudga keladigan ekologik muammolarni yechish;
- korxonaning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha statistik hisobotlarini tayyorlash *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish;
- ta'lim natijalarini baholash;
- masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish;
- tegishli sanoat korxonalarining ekologik holatiga baho berish;
- tozalash jihozlarni to'g'ri tanlash va ishlatisht;
- tozalash jihozlarni texnologik parametrlarini hisoblash;
- atrof-muhit sifatini baholash;

- ekologik monitoring olib borish;
- atrof muhitda ifloslantiruvchi moddalarning ta'sirida ro'y berayotgan o'zgarishlarni baholash;
- atmosfera havosida va tabiiy suv havzalaridagi kimyoviy jarayonlarni tahlil qilish;

- moddalar sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash;
- analitik reaksiyalarni bajarish;
- suvlarga boshlang'ich ishlov berish;
- ekologik muammolarni o'rganish va zararsizlantirish usullarini topish;
- sanoat tarmoqlarida ekologik aspektlarni aniqlash;
- sanoat korxonalarini atrof-muhitga ta'sirini baholash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlaridan samarali foydalanish;
- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish;
- atrof muhitni ifloslantiruvchi manbalarni aniqlash va zararsizlantirish usullarini topish;
- oqava suvlarni hosil bo'lishi va tabiiy suv xavzalarining ifloslanishini tahlil qilishni amalda bajarish;
- ijtimoiy ekologik muammolarni xalq etish;
- fan-texnika yutuqlaridan foydalanish;
- suvni mexanik usullar bilan tozalash;
- atrof muhitni ifloslanganlik darajasini baholash;
- korxonalarning ekologik menejment tizimini ishlab chiqish;
- sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida atrof-muhitni boshqarish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarni o'tkazish va muammolari bo'yicha yechimlarni qabul qilish;
- korxonalarda favqulotda holatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini o'tkazish;
- tashlama gazlarni, oqava suvlarni va qattiq chiqindilarni tozalash inshootlarini loyihalash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Kasbiy qayta tayyorlash kursi 864 auditoriya soatni tashkil etadi. Qayta tayyorlashning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari to'g'risida" gi 25-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi Diplom beriladi.

"EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI" QAYTA TAYYORLASH KURSI O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

I. Umumiy tayyorgarlik

1.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. «Elektron universitet» va uning xususiyatlari.

Vebinar, onlayn ma'ruza, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga joriy etish. Masofaviy ta'lim platformalari va ularidan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.

Ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini takomillashtirish.

Multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini yaratish, ulardan ta'lim tizimida foydalanish. QR-kod va undan foydalanish.

Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish.

II. Umumkasbiy tayyorgarlik

2.1. Ijtimoiy ekologiya

Ijtimoiy ekologiya fani. Jahon sivilizatsiyasi bilan ijtimoiy-ekologik rivojlantirish o'rtasidagi nomutanosiblik. Global ekologik inqirozning sabablari va oqibatlari. Inson va ekologik xavfsizlik. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash. Ijtimoiy ekologiya fanining predmet sohasi, uning asosiy vazifalari va prinsiplari. Ijtimoiy ekologiyani fan sifatida paydo bo'lishi. Ijtimoiy ekologiyani rivojlantirish bosqichlari. Ijtimoiy ekologiyani predmeti, vazifalari. Ijtimoiy ekologiyani boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. Umumiy ekologiyadan ijtimoiy ekologiyaga. Umumiy ekologiyani tarmoqlari. O'simliklar va hayvonlar ekologiyasi. Inson ekologiyasi. Biosfera va noosfera to'g'risidagi ta'limot. Biosfera nima? Biotsenoz va uning turlari. Ekotizim tushunchasi va tarkibi. Gomeostaz va ekologik sukseksiya. Noosfera bilan biosfera o'rtasidagi farq. Ijtimoiy rivojlanishning ekologik nazariyalardagi o'rni. Ekologiyani asoslari qonunlari. Barri kommoner qonuni. Ekologik valentlik. Libixning "minimum qonuni". Shelfordning "tolerantlik qonuni". Ijtimoiy ekologiyani asosiy qonunlari. Barqaror rivojlanish va ijtimoiy ekologik tadqiqotlar. Barqaror rivojlanish tushunchasi. Barqaror rivojlanishga o'tishning asosiy yo'nalishlari. Ijtimoiy-ekologik tadqiqotlar olib borish amaliyoti. Atrof-muhit sifatini baholash. Ekologik monitoring va uning asosiy pog'onalari. Ekotoksikologiya. Toksik moddalarning tirik organizmlar yashash tarziga ta'siri. Toksik jarayonlar va ularni baholash. O'zbekistonning ekologik siyosati. Atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan qonunlar,

meʼyoriy xujjatlar. Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi va uning faoliyati. Ekologik harakat maqsadi va vazifalari. O'zbekistonning ijtimoiy ekologik muammolari. Xalqaro ekologik xamkorlik. Demografik omillarning ijtimoiy-ekologik sharoitlarga ta'siri.

Global ekologik inqirozni yuzaga kelish sabablari. Ijtimoiy ekologiyaning fan sohasi. Ijtimoiy-tabiiy rivojlanishning mos kelish qonunlari. Ijtimoiy ekologiya sivilizatsiyaning o'zini anglash shakli sifatida. Chikago ijtimoiy ekologiya maktabining klassik konsepsiyalari va zamonaviy nazariyalari. Invariantizm atrof muhitni muhofaza qilishning nazariy asosi sifatida. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Ekologik muammolar ni hal qilish yo'llari. Zamonaviy ekologik siyosat. Ekologik siyosatning qonunchilik-tashkiliy bazasi. Ekologik madaniyat, ong, etika. Ekologik harakatlarning yuzaga kelishi va ularning evolyusiyasi. O'zbekiston Respublikasining dolzarb ekologik muammolari.

2.2. Atrof muhit kimyosi

Yerdagi evolyusion jarayonlar. Koinotning kelib chiqishi va evolyusiyasi. Yerning kelib chiqishi va evolyusiyasi. Yerning gidrosferasi. Suvning sho'rlanishi. Kontinental suvlar kimyosi. Yer osti suvlari kimyosi. Yer ostidagi suvlarning ifloslanishi. Okean suvlarining kimyosi. Dengiz suvidagi asosiy ionlarning kimyoviy aylanma harakati. Tabiiy suvlarning sinflanishi. Gidrosferaning ifloslanishi. Ichimlik suvi kimyosi. Atmosferaning tarkibi. Shaharlar atmosferasi. Havo ifloslanishining oqibatlari. Ozon miqdorini o'lchash. Kislotali yomg'irlar, ularning yuzaga kelishi sabablari va oqibatlari. Tuproqlarning nanotarkibiy tuzilishi. Tuproqlarning kimyoviy tarkibi. Tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi va muhofazasi. Radiatsion ifloslanish. Radionuklidlar. Atrof muhitga antropogen ta'sir. Izotoplar va radioaktiv nurlanish. Respublikasidagi radioaktiv chiqindilar va xavfsizlik. O'zbekistondagi radiatsion ekologik holat. Aholi punktlarining radiatsion-ekologik holati.

Radioaktiv elementlarning yadro tarkibini aniqlash bo'yicha masalalar yechish. Izotop va izobarlilar. Yadro reksiyalari. Kimyoviy elementlarning radioaktiv parchalanishi bo'yicha masalalar yechish. Radioaktiv parchalanish va yadro reaksiyalarining energiyasini aniqlash. Tropoferada organik birikmalarining oksidlanish reaksiyalari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni bajarish. Tabiiy suvlarni Kurliev formulasi bo'yicha tarkibini aniqlash. Alyokin sinflanishi bo'yicha tabiiy suvlarni guruhi, turlarini aniqlash. Suv xavzalarida oqava suvlarning yig'ilishi natijasida hosil bo'lgan fotosintezlovchi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash. Kimyoviy elementlarni hayvonot va o'simlik organizmlariga ta'siri. Favqulotda holat natijasida atrof-muhit sifat ko'rsatkichlari o'zgarishini bayon etish. Gazlarni fizik, fizik-kimyoviy, kimyoviy xususiyatlari, ularni atmosferaga tushish manbalarini va ularni atmosferada bo'lish vaqtlarini aniqlash.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashuvi va uning oqibatlari. Barqaror rivojlanish va atrof-muhitdagi tabiiy kimyoviy o'zgarishlar. Ekologik vaziyat keskin hududlar. O'zbekiston respublikasida atrof-muhit holati.

2.3. Ekologiya

Ekologiya fani, uning maqsad va vazifalari. Ekologik omillar va qonuniyatlar. Biosfera. Molekular ekologiya va uning biosfera ta'limotidagi o'rni. Tabiiy resurslar va ularning turlari. Atmosfera va uni muhofaza qilish. Atmosfera havosini zaharli gaz va changlardan tozalash usullari. Gidrosfera. Tabiatda suvning roli va ahamiyati. Litosfera va undagi muammolar. Barqaror rivojlanish dasturi. Barqaror rivojlanish muammolari va istiqbollar. Monitoring tushunchasi, usullari va turlari.

Zararli moddalarning atmosferada tarqalish va ruxsat etilgan tashlanma meyorlarini hisoblash. Atmosferaga tarqalayotgan changlar va ularning ruxsat etilgan tashlanmalari meyorlarini hisoblash. Atmosferaga zararli gazlarni tarqalishi va ularning ruxsat etilgan tashlanmalari meyorlarini hisoblash. Siklonni hisoblash bilan tanlash. Suv xavzalariga ifloslovchi modda oqizishdan keladigan ziyonni hisoblash. Oqava suvlarni tozalash darajasini hisoblash.

Oqava suvlar loyqaligini taqribiy topish. Gorizonttal tindirgichlarning texnologik ko'rsatkichlarini topish. Oqava suvlardagi muallaq moddalar miqdorini sizgich orqali suzib olib gravimetrik usulda aniqlash. Oqava suvlarni fizik-kimyoviy tozalash usullari. Oqava suvni organik moddalardan adsorbsiya usuli bilan tozalash. Biogaz olish. Gaz tashlanmalari tarkibini organoleptik aniqlash. Tuproqning ekologik xususiyatlarini aniqlash.

Tabiat va inson. Global ekologik muammolar. O'zbekiston respublikasining ekologik muammolari. Urbanizatsiya jarayoni va ekologik muammolar. Ekologiya va demografiya. Ekologiya va xalqaro munosabatlar. Atmosferaning ifloslanish muammolari. "Issiqxona" effekti. Energetika sanoati va atrof-muhit. Kislotali yomg'irlar. Transport va atrof muhit. Ozon qatlaminin yemirilishi va uning salbiy oqibatlari. Muqobil energiya manbalari. Gidrosfera. Suvdan foydalanish muammolari. Oqava suvlarni tozalash usullari. Litosfera va u bilan bog'liq muammolar. Tuproqning ifloslanishi. O'simliklar va hayvonlar himoyasi muammolari.

2.4. Hayot faoliyati xavfsizligi

"Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fanining mazmuni. Odam va uning yashash muhiti orasidagi munosabat. Hayotiy faoliyat xavfsizligining asosiy tushuncha va qoidalari. Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash prinsip, usul va vositalari. Tavakkalni yo'l qo'ysa bo'ladigan mintaqasi. Mehnat xavfsizligi psixologiyasi. Sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlar xavfsizligi asoslari. Uskuna va texnologik jarayonlarning xavfsizlik ekspertizasi. To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarda mehnat muhofazasi. Ishlab chiqarish gigienasi va sanoat sanitariyasi. Ishlab chiqarish sexlarini shamollatish va istish. Zararli chiqindilarni so'rib olish

va havoni tozalash. Shovqin va titrashdan himoyalaniish. Yorug'lik mehnat muhofazasi kattaligi sifatida. Bosim ostida ishlaydigan idish va apparatlarni havfsiz ishlashini ta'minlash. Yon'ing qarghi kurash jamiyati.

Fanning asosiy tushunchalari mohiyati; xavf turlarini, ularni guruhlash va identifikatsiyalash. Hayot faoliyati xavfsizligining komfort sharoitlari, ishchi o'rni ergonomikasini o'rganish. Ishlab chiqarishning zararli va zaharli omillarini inson organizmiga ta'siri hisoblash. Ishlab chiqarishdagi shovqin va vibratsiyani hisoblash. Ishlab chiqarishdagi tabiiy va sun'iy yorug'likni hisoblash usullari. Mexanik jarohatlanishdan muhofazalanish va muhofazalovchi vositalarni aniqlash. Elektr tokining inson organizmiga fiziologik ta'siri. Yon'inni o'chirishning asosiy vositalarini hisoblash usullari. Kasbiy kasalliklarni va ishlab chiqarishdagi jarohatlarni tekshirish, hisobga olish va aniqlash usullari. O'zbekistondagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi boshqaruv tizimining tuzilishi va funksiyalari. Tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli obektlari. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi. Jamiyatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy xavflar va ulardan muhofazalanish masala va muammolarini o'rganish. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda insonning psixologik ko'rsatkichlarining ahamiyati. Faoliyat xavfsizligini nazorat qiluvchi davlat tashkilotlari, ularning faoliyat ko'rsatish sohalarni, huquq va majburiyatlarini o'rganish.

Tabiiy yoritilganlikni tadqiq qilish. Sun'iy yoritilganlikni tadqiq qilish. Tuproqning solishtirma qarshiligini aniqlash. Ish yuzalari tirashini tadqiq qilish. Shovqinni yutish va to'sish tadbirlari samaradorligini aniqlash. Havo quvurlarida harakatlanayotgan havoning miqdorini o'rganish. Suyuqliklarning chaqnash haroratlarini tadqiq qilish. Shikastlangan kishilarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish. Dastlabki o't o'chiruvchi vositalar. Ishlab chiqarish honalari uchun havo almashirishlarni hisoblash. Bino va inshootlarni yashindan himoyalash. Ishlab chiqarishda baxtsiz va ishlovchilar sog'lig'iga zarar keltiruvchi boshqa hodisalarni taftish qilish. Ishlab chiqarishda jarohatlarning statistik ko'rsatkichlarini hisoblash. Shaxsiy himoya vositalari o'rganish. Davlat yon'ing nazorati.

2.5. Metrologiya va standartlashtirish

Kirish. Metrologiya va standartlashtirish fanning maqsad va vazifalari. Metrologiya bo'yicha umumiy ma'lumotlar. Kattaliklar va ularning turlari. O'lchash usullari va vositalari. O'lchash xatoliklari va noaniqlik. Standartlashtirish haqida. Texnik jihatdan tartibga solish. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish.

"Metrologiya to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi O'zR qonuni bo'yicha tushunchalar berish. Metrologiya va standartlashtirish bo'yicha Xalqaro Tashkilotlar. Standart,

ularning turlari, ishlab chiqish tartiblari, tasdiqlanishi, standartlarni ruyxatdan o'tkazish tartibi. Mahsulot haqidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash. Texnik reglamentlarni ishlab chiqishning asosiy vazifalari. Sertifikatlashtirish sxemalarini o'rganish. Xalqaro ISO 9000 seiyasidagi standartlar to'g'risida.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi va qoidalari bilan tanishish. Turli tizimdagi o'lchash asboblarni tekshirish va xatoliklarini aniqlash. O'lchash natijalarini qayta ishlash. Tasodifiy xatoliklarni normal qonun bo'yicha taqsimlanishini o'rganish. O'zgarmas tok ko'priklari yordamida qarshilikni o'lchash. Avtomatik ko'priklarning graduironka xarakteristikasini o'rganish. O'zgarmas tok potensimetri yordamida har xil kattaliklarni o'lchash. Elektron ossilloqraf. Hisoblagichlar yordamida miqdor va sarfni o'lchash.

2.6. Umumiy kimyoviy texnologiya

Umumiy kimyoviy texnologiya fanning maqsad-vazifalari, o'quv jarayonida tutgan o'rni. Kimyoviy texnika va texnologiya rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Kimyoviy mahsulotlarning sifati va tannarxi. Kimyoviy texnologik jarayon haqida tushuncha. Kimyoviy texnologik jarayonlarning tasnifi. Texnologik jarayonlarda muvozanat. Texnologik jarayonning tezligi. Jarayonlar tezligini oshirish usullari. Texnologik hisoblar. Kimyoviy reaktorlar va ularga qo'yiladigan talablar. Idial siqib chiqarish va to'liq aralashtirish reaktorlari. Harorat tartibi bo'yicha reaktorlarning tasnifi. Gomogen jarayonlar va reaktorlar. Geterogen jarayonlarning qonuniyatlari. Gaz - suyuqlik tizimi uchun jarayonlar va reaktorlar. Qattiq-suyuq, qattiq-qattiq, suyuq-suyuq, va ko'p fazali tizimlardagi jarayonlar va reaktorlar. Katalizning mohiyati va turlari. Qattiq katalizatorlarning xossalari va ularni tayyorlash. Kimyoviy-texnologik tizimlar tushunchasi. Xomashyo tavsifi va zahiralari. Sanoat uchun suv tayyorlash. Bog'langan azot texnologiyasi. Nitrat kislotasini olish texnologiyasi. Sulfat kislotasini ishlab chiqarish. Mineral tuzlar va o'g'itlar. Fosforli o'g'itlar. Azotli o'g'itlar. Kaliyli o'g'itlar. Soda ishlab chiqarish. Organik sintez jarayonlari. Metil spirti sintezi. Etil spirti sintezi. Parafinlar va ularning galogenli hosilalarini xlorlash. Yuqori molekulyar birikmalar. Sellyuloza ishlab chiqarish. Neftni qayta ishlash.

Kimyoviy texnologik tizimlar va maxsus apparatlarning umumdorligi. Texnologik jarayonlarda muvozanat. Kimyoviy-texnologik jarayonning tezligi. Kimyoviy reaksiyalarning moddiy balansini tuzish. Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik balansini tuzish. Kimyoviy sanoatining xomashyo bazasi. Ammiak ishlab chiqarish texnologiyasi. Nitrat kislotasi ishlab chiqarish texnologiyasi. Sulfat kislotasini ishlab chiqarish. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish. Neft va uni qayta ishlash texnologiyasi.

Qattiq yonilg'irlarning namligini aniqlash. Qattiq xomashyolar namligini aniqlash. Neft mahsulotlarining qovushqoqligini aniqlash. Suvining qattiqligini aniqlash. Neft mahsulotlarining zichligini aniqlash. Oqava suvlarni xrom

ionlaridan tozalash. Mineral flotatsiyasi. Sulfid rudalarini kuydirish. Yog'och qipig'idan selluloza olish. Dixloretan va natriyetrasulfbid polikondensatsiyasi. Neft mahsulotlari krekingi. Neft mahsulotlari pirolizi. Plastmassa tayyorlash va uni mustaxkamligini tekshirish. Feno-farmaldegid smolasini olish.

2.7. Suv kimyosi.

Suvning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari. Suvga ishlov berish va sifatini aniqlash. Oqava suvlardagi azot va fosfor, suvdagi sulfat va xloridlar, zaxarli elementlar. Oqava suvlarni tozalash usullari. Suvning gidrologik aylanma harakati. Suvni yumshatish va tuzsizlantirish. Suvni tiniqlashtirish. Suvning fizik ko'rsatkichlarini aniqlash. Suv sifatining texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash. Suvda erigan erkin va agressiv karbon kislotasini, karbonat va gidrokarbonat ionlarini aniqlash. Suvda azot birikmalarini aniqlash. Suvda yod miqdorini aniqlash. Mikroorganizmlar xarakteristikasi. Bakteriyalariyalarning sinflanishi. Mikroorganizmlar fiziologiyasi.

Suvning fizik konstantlarini anion-diagrammalari va ulardan foydalanish. Suvni sifat tarkibini o'rganish va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash. Suvni sifatiga baho berish. Tabiiy suv havzasining ifloslanish darajasini aniqlash. Tabiiy va oqava suvlarni biologik moddalar bilan ifloslanishini aniqlash. Suvni barqarorligini aniqlash. Tozalash inshootlarining texnologik ko'rsatkichlarini hisoblash va ishlash samaradorligini aniqlash. Suvni zararlantirish jarayonlarini tahlil qilish. Suvni yumshatish jarayonining ko'rsatkichlarini hisoblash. Oqava suvlarni mexanik usul bilan tozalash moslamalarini texnologik ko'rsatkichlarini hisoblash. Suvdagi azot birikmalarining har xil formalari aniqlash. Suvdagi erigan CO₂ ning har xil formalari aniqlash. Suvni yumshatishda ishlatiladigan ohakli suvning konsentratsiyasini aniqlash. Suv sifatini texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash. Suvni oksidlanishini Kubel va Shuls usullari bilan aniqlash.

Kimyoviy laboratoriyada texnika xavfsizligi, reaktivlar, shtativlar va kimyoviy idishlarni tanishish. Suvning fizik ko'rsatkichlarini aniqlash. Suvning umumiy ishqoriyligini va kislotaliligini aniqlash. Suv sifatini texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash. Suvning karbonat va umumiy qattiqligini aniqlash. Suvni yumshatish. Suvni tiniqlashtirish. Aktiv xlori yodometrik usul bilan aniqlash. Suvning oksidlanishini aniqlash.

2.8. Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar.

Gidrostatika asoslari. Gidrodinamikaning asosiy tushunchalari. Oqimlarning harakatlanishlari. Gidravlik qarshiliklar. O'xshash nazariyasining asoslari. Suvuqlikda qattiq jism harakati. Qo'zg'almas va mavhum qaynash qatlam gidrodinamikasi. Nasoslar. Suvuqliklarni uzatish. Nasoslar turlari. Turli jinsli sistemalar klassifikatsiyasi. Filtrlash. Sentrafugal. Gazlarni tozalash. Elektrostatik maydon ta'sirida tozalash. Araltirgich. Issiqlik o'tkazish asoslari.

